

**TIBBIYOT ZULIKLARINING INSON TANASIGA IJOBIY TA'SIRLARI  
VA LABARATORIYA SHAROITIDA KÓPAYTIRISH USULI**

*Boboqulova Shoxista Axmatillo qizi*

*Suyunova Muxlisa Olimjon qizi*

*Abdurazzoqova Hilola G'ayrat qizi*

*Samrqand Davlat Tibbiyot Universiteti*

*Farmatseftika fakulteti talabalari*

**ANNOTATION:** In all countries of the world, hirudotherapy is used for the treatment and prevention of many diseases, and the main advantage of this method is general recovery without complications. In this article, the types of leeches are used in medicine, and their positive effects on the human body are different information on the treatment of diseases, its correct use and the breeding of medical leeches in jars in laboratory conditions.

**ANNOTATSIYA:** Dunyoning barcha mamlakatlarida girudoterapiya ko'plab kasalliklarni davolash va oldini olish uchun ishlatiladi va ushbu usulning asosiy ustunligi asoratlarsiz umumiy tiklanishdir.Ushbu maqolada Zuluklarni turlari tibbiyotda ishlatilishi, inson organizimiga ijobiy ta'siri, turli xil kasalliklari davo boliishi , undan tóg'ri foydalanish va laboratoriya sharoitida tibbiyot zuluklarni bankada ko'paytirish haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zлari:** girudoterapiya, zuluk, germafrodit, girudin, fermentlar, granuloronidaza, distabalaza, apiraza, kollageneza, triglitsiridaza, xolestraza, , antiseptik,

Dorivor zulukning shifobaxsh ta'siri uning so'lagiga asoslangan — unda bioaktiv moddalar mavjud. Asosiy tarkibiy qism — bu girudin, u qon ivishini oldini oladi va qon tromblarini rezorbsiya jarayonini rag'batlantiradi. Girudin va so'lakning boshqa bioaktiv tarkibiy qismlari bakteritsid (patogen mikroblarni o'ldiradi), shuningdek bakteriostatik (bakteriyalar ko'payishi va rivojlanishini oldini oladi) ta'siriga ega. Ushbu moddani aniqlash davomida olib borilgan izlanishlar tibbiyotda antikoagulyantlarni qo'llay boshlash amaliyotiga asos solgan [manba]. Zuluklarning so'lagi tarkibida gialuronidaza fermenti mavjud bo'lib, u faol moddalarni organizmning to'qimalariga chuqur kirib borishiga imkon beradi — 10 sm`gacha. Shuningdek, bu ferment biriktiruvchi to'qimalarni parchalaydi, shu sababli chandiqlarning so'rilib ketishini kuchaytiradi.

Ko'rsatmalar:Ushbu terapiya usuli foydalanish uchun ko'plab ko'rsatmalarga ega, ular orasida quyidagi kasalliklar mavjud:

Yurak-tomir tizimi kasalliklari;

Oshqozon-ichak trakti kasalliklari;  
O'pka kasalliklari;  
Qalqonsimon bez kasalliklari;  
Siydik-tanosil tizimi kasalliklari;  
Teri kasalliklari (shuningdek kosmetik nuqsonlar);  
Markaziy va periferik asab tizimi kasalliklari;  
Revmatologik kasalliklar;  
LOR kasalliklar;  
Mushak-skelet tizimi kasalliklari  
Infektsion kasalliklar;  
Turli jarohatlar;  
Ko'z kasalliklari.

Qarshi ko'rsatmalar: Muolaja quyidagi holatlarda o'tkazilishi mutlaq qarshi ko'rsatiladi. Trombotsitopeniya;

Onkologiya;

Gemofiliya;

Uzoq muddatli va og'ir qon ketishlar;

Qon ivishining buzilishi;

Zuluklarning so'lagi tarkibiy qismlariga nisbatan intolerantlik. Nisbiy qarshi ko'rsatmalar (bu holda muolaja o'tkazilishi mumkin, ammo asoratlar xavfi yuqori bo'ladi):

Gipotoniya;

Ayollarda anemiya va hayz ko'rish;

10 yoshgacha bolalar;

Ba'zi ruhiy kasalliklar;

Surunkali kasalliklarning xuruj olishi;

Homiladorlik;

Sabablari hali aniq bo'lмаган kasalliklar.

Muolajani o'tkazilishi:

Girudoterapiyaning mohiyati tanaga dorivor zuluklarni qo'yishdan iborat. Bitta muolaja davomiyligi 40-60 daqiqani tashkil etadi, bunda o'rtacha 6-10 ta zuluk ishlataladi. Ularning har biri 5 mldan 15 mlgacha qon so'rib olishi mumkin. O'rtacha davolanish kursi 7-14 kunlik tanaffus bilan 10 seansdan iborat bo'ladi. O'tkazilish tartibi:

Teri spirt bilan artiladi. Boshqa antiseptik ishlatilmaydi, chunki zuluklar hidga juda sezgir bo'lishadi; Zuluklarni joylashtiriladi. Ularning tishlov chuqurligi sayoz — 2 mm gacha. So'lak tarkibida og'riq qoldiruvchi ferment mavjud, shuning uchun bunda

deyarli noqulaylik sezilmaydi; Muolaja paytida zuluklar asta-sekin bemorning qoniga so'lak tarkibidagi bioaktiv moddalarni ajrata boshlaydi. Ta'sir zonasida ushbu moddalarning 70-80 foizigacha kasal a'zoga «kirib boradi». Shundan so'ng zuluk qonni so'rib olishni boshlaydi; Jarayondan so'ng, zuluk olinib, tishlovi joyiga steril salfetkaler qo'llaniladi.

Aksariyat hollarda zuluklar yetarlicha qon so'rgach, o'zлari tushib ketgunlaricha qo'yiladi. Zulukni muddatidan oldin tanadan olish uchun uning oldingi so'rgichiga spirt yoki yodga yengil botirilgan paxta qo'yish yetarli bo'ladi, shunda ular darhol tushib ketadi. Shuningdek bu maqsadda uning ustiga tuz sepish, sirkal kislotasi yoki boshqa o'tkir hidli moddani unga yaqin keltirish mumkin. Agar zuluk qon so'rishni to'xtatmasa, uning old so'rgichini skalpel yordamida ko'tarib, uning ostiga havo kiritish kerak. Zulukni kesib tashlash befoyda, bunda u qon so'rishni davom ettiraveradi. Qo'llanilgach, zuluklar odatda yo'q qilinadi, ularni qayta ishlatishga yo'l qo'yilmaydi.

Zuluk bilan davolash, foyda va zararlari, zuluk bilan davolashning foydalari: Tromb hosil bo'lishi xavfi kamayishi; To'qimalarda va organlarda qon aylanishini tiklanishi; Bakteritsid va yallig'lanishga qarshi ta'sir; To'qimalarni ozuqa moddalari va kislorod bilan yaxshiroq ta'minlanishini; Xolesterin darajasi normallashishi; Limfa drenaji yaxshilanishi; Shishlarni bartaraf bo'lishi; Yurak faoliyati yaxshilanishi; Immunitet mustahkamlanishi; Qon bosimi me'yorlashishi; Tishlash joyida va butun tanaga og'riq qoldiruvchi ta'siri; Modda almashinuvini me'yorlashishi. Bir qancha kasalliklar davolanishlari mumkin:

Girudoterapiya seansiga kardiolog, nevropatolog, gastroenterolog va boshqa ko'plab mutaxassislar murojaat qilishlari mumkin. Ushbu usul samarali bo'lgan kasalliklar ro'yxati juda keng: Yurak-tomir tizimi- tromboz, qon ivishining kuchayishi, ishemiya, infarkt, ateroskleroz, yurak nuqsonlari. Oshqozon-ichak- gastrit, oziq-ovqatga allergiyalar, xoletsistit, kolit, jigar sirrozi. O'pka kasalligi- plevrit, bronxit, pnevmoniya, emfizema, bronxial astma.

Endokrin sistemasi kasalligi- semizlik, qandli diabet, qalqonsimon bez kasalliklari.

Siydik-tanosil tizimi- prostata adenomasi, buyrak yetishmovchiligi, pielonefrit, siydik-tosh kasalligi, prostatit, tuxumdon kistasi, bachadon miomasi, endometrioz, kolpit.

Markaziy va periferik asab tizimi- bosh aylanishi, bosh og'rig'i, migren, nevrozlar, uyqusizlik, epilepsiya. Revmatologik kasalliklar: Artroz, artrit, radikulit, osteoxondroz, podagra, revmatizm. Oftalmologik: Keratit, glaukoma. LOR organlar: Sinusit, tonzillit, rinit, faringit, otit, sinusit, gingivit, stomatit, eshitish qobiliyati pasayishi, burun yon bo'shliqlari kasalliklari, quloq shang'illashi. Dermatologik kasalliklar va kosmetik teri muammolari: So'gallar, sellulit, ekzema, akne, psoriaz,

furunkulyoz, neyrodermatit, tizimli qizil yuguruk, turli dermatozlar. Mushak-skelet betizimi: Jarohatlarning bo'g'implar va suyak to'qimalarining holatiga salbiy ta'siri, churra.

**TIBBIYOT ZULUKLARNI LABORATORIYA SHAROITIDA  
KO'PAYTIRISH USULI.**



1-2-3-rasm



3rasm.Laboratoriya sharoitida tibbiyot zuluklariniko 'paytirishni kurnishi. Tibbiyot zuluk larini sun'iyko 'paytirishning zamona viy metodlari iishlabchi qarilgan gaqadar ular oddiyko 'llardavab o'loqsuvlar ichiqadigan joylarday ovoi y holdako 'payib yotardi, chunki bo 'loqsuvlari qishfasli diliqyo zfasli da esamuz dekbo 'ladi.

Tadqiqotuchunaptekadan 100 donatibbiyot zulugi olinib tajriba uchun ishlataldi.[1-3]. Tajriba qismi Laboratoriya sharoitida tibbiyot zuluklariniko 'paytirishda uchletirilishiha bankalardan 50

taolinib harbir bankaga toza ichimlik suv bilanto 'ldirilib, harbir banka largabir juft dantibbi yotzulug isolindi.

Bunda engahamiyatli jihatishundaki suv banka largab o'g 'zigacha tuldirilm asligi kerak.

Chunki, zuluklar vaqt - vaqtib ilansuvdantash qarigachi qib turadi. SHuningdek, banka ningog 'zisurpmatosi bilanz ichqilib bog 'labqo 'yiladi. Chunki, tibbiyot zuluklar ibankada ntash qarimuhit gachi qib ketmasligi chun.

Zuluklariniko 'paytiradigan xonaharorati 25-27 0C, xonanamligi esa 80 % bo'lishi kerak. Tibbiyot zuluklar isaq lanayotgan banka dagisi suvlar doim otozabo 'lishi kerak.

Bunda suv maxsus filtrlar asosidat oza landiyokial mashtirib turiladi. Chunki, zuluklar birlashtirilishi chiqindichi qarib turadi. Vaqt - vaqtib ilan yangi suyilgan hayvon qonib ilanoziqlantirilishi turiladi.

Oziqlantirilganzuluklaro‘zhajmiganisbatan4-5  
barobaryirikbo‘lishikuzatiladivabundayzuluklar3-4

oydanxattobiryilgachaovqatemasligimumkin.

SHuningdek,

harbirovqatlanishdanso‘ngzuluklarvabankalartozalabyuvibturilishikerak.Tibbiyotzulu  
klarifaqaturug‘lanishvaqtidaginamuloqotdabo‘ladilar.

Zuluklarkopulyasiyasituxumlargato‘lgang‘umbaklarnimuhitning25-27  
haroratidaamalgaoshirildi.

0C

Shisha bankalar tuproq yoki torf bilan bo‘g‘zidan pasiroq joygacha to‘ldirilib zuluklarni urug‘lantirishga bir oyga qoldirildi va keyinchalik ularni alohida-alohida torf to‘ldirilgan bankalarga solindi. Albatta bunda torfning etarli darajada nam bo‘lishi kerak. Chunki, zuluklar torf ustida engil harakat qilishi va tuproq qatlamlarida yo‘l ochib ko‘milishi kerak. Tibbiyot zuluklari tuproqda uncha chuqur bo‘lmagan yo‘laklar hosil qilib, ularga o‘zining keljakda klechatka, ya’ni yosh zulukchalar taraqqiy etib, rivojlanadigan tuxumlarga to‘lgan g‘umbaklarni qo‘yadi. Ularning og‘irligi 0,03 gr ni, uzunligi esa 7-8 mm ni tashkil etadi. Har bir tibbiyot zulugi o‘rtacha 3 tadan 5 tagacha g‘umbaklar qo‘yib, har bir g‘umbakda 10-15 tagacha yosh zulukchalar taraqqiy etganligi kuzatiladi. 2-3 soat o‘tgandan so‘ng g‘umbaklar yumshoq va shaffof tuxumsimon shaklga kirdi. Bunday g‘umbaklarda rivojlanayotgan yosh zuluklarni kuzatish mumkin bo‘ladi. O‘rtacha 25-30 kunda yosh tibbiyot zulukchalarini g‘umbakni teshikchalaridan tark etishi kuzatildi va bunday yosh zuluklar alohida toza suv bilan to‘ldirilgan bankalarga o‘tkazilib voyaga etgan zuluklar singari qon bilan oziqlantirib boriladi.



3-rasm.har bir g‘umbakda 10-15 tagacha yosh zulukchalarni kurinishi.

Laboratoriya sharoitida sun’iy ko‘paytirilgan zuluklar 1-1,5 yil ichida tibbiyotda foydalanish uchun to‘liq tayyor bo‘ladi, ya’ni tabiiy ko‘llarda hayot kechiruvchi zuluklarga qaraganda tezroq voyaga etadi, chunki tabiiy muhitda tibbiyot zuluklari 3 yilda voyaga etadi. Bu esa ularning 1,5 yil oldin voyaga etishini ta’minlaydi. Tadqiqotlar davomida shu narsa ma’lum bo‘ldiki bankada ko‘paytirilgan tibbiyot zuluklari tabiiy muhitdagi ko‘llardan ovlangan tibbiyot zuluklaridan hech bir sifati bo‘yicha qolishmadidi. Tibbiyot zuluklarining bu metodlar asosida ko‘paytirilishi klinik tibbiyotda (davolash uchun) kosmetologiya, dori-darmonlar uchun mahsulot bazasi sifatida foydalanishga yo‘l ochadi. Eng muhim jihat shundaki, tibbiyot zuluklarini

laboratoriya sharoitida ko‘paytirish mazkur jonivorlarni tabiatda tur sifatida saqlash imkonini beradi.

### XULOSALAR

farmatseftika sanoatida tibbiyat zuluklarni kópaytirishin takomillashtirish va tadbiq etish lozim. Tibbiyat zuluklari turli xil kasalliklarga davo ekanligini nazariy va amaliy jihatdan bilar ekanmiz uning iqtisodiy jihatdan ham qulayligiga aminmiz. Tadqiqotlar davomida shu narsa ma’lum bo‘ldiki laboratoriya sharoitida bankada ko‘paytirilgan tibbiyat zuluklari tabiiy muhitdagi ko‘llardan ovlangan tibbiyat zuluklaridan hech bir sifati bo‘yicha farq qilmasligi aniqlandi. Xulosa órnida aytish joizki tibbiyat zuluklarni kópaytirib aholiga tadbiq etishni takomillashtirish lozim. Chunki aholi salomatligini ta’minalashda tibbiyat hodimlarining órni beqiyosdir.

### ADABIYOTLAR

- 1.Sh.Z.Umarova, M.N.Ziyayeva, G.M.Ikromova. Tibbiyat va Farmatseftika tovarshunosligi. (Óquv qóllanma). -T.: <<EFFECT-D>> 2021, 280-bet.
- 2.Islomov A.X. Xushvaktov.A.A. Xushvakova.M.A. // Tibbiyat zuluklarni kupaytirish usullari.// O‘zMU O‘zbekistonda tabiiy birikmalar kimyosining rivoji va kelajagi. Toshkent-27.05. 2021 y B.266-267.
3. Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari”. 1-jild. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.1983 – 195 b.
- 4.Nikonov G.I. Meditsinskaya piyavka osnovы girudoterapii. SPb.:«SDS»-1998. – 320 s.